
“JAJJI ISTE’DOD” KO’RIK-TANLOVNING G’OLIBLARI ANIQLAND

Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi tasarrufidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o’rtasida 5 tashabbus yo’nalishlarini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “Jajji iste’dod” ko’rik-tanlovining tuman bosqichi bo’lib o’tdi.

Ko’rik-tanlovda tarbiyalanuvchilar o’z iste’dodlarini she’rlar va raqslar orqali ifodalab berdilar.

Tanlovda 4 ta sektordagi 2-, 10-, 11-, 20-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari qatnashdilar. Tanlov natijalariga ko’ra, 3-o’rin 20-, 11-DMTtlarga, 2-o’rin 10-DMTT va 1-o’rin 2-DMTT tarbiyalanuvchilariga nasib etdi.

Yakunda g’oliblar maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi tomonidan maqtov yorliqlari hamda esdalik sovg’alar bilan taqdirlandilar.

2023-06-13 16:20:08